


Farg'ona viloyatining
Tashqi savdo aylanmasi
(2018 yil yanvar-avgust)


Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi, mln. AQSh dollari

2018 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 951,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 57,9 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 371,2 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 6,2 %) va import hajmi 580,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 29,2 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 209,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018 yilda
tovarlarning oylik
eksport-import
ko'rsatkichlari
dinamikasi**
mln. AQSh dollari



2018 yil yanvar-avgust oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

Farg'ona viloyatida tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 % oshdi va 58,6 % ga yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-avgust oylarida 49,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi 41,4 %ga tushdi.

Farg'ona viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)


| | Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi | |
|--|---------------------|------------------------|---------|--------|------------------------|----------------------|
| | | | | | ulushi, % | o`zgarish sur`ati, % |
| | Rossiya | 256,3 | 82,7 | 173,6 | 26,9 | 2,0 b ↑ |
| | Xitoy | 220,2 | 75,2 | 145,1 | 23,1 | 185,2 ↑ |
| | Qozog`iston | 203,2 | 78,4 | 124,8 | 21,3 | 175,4 ↑ |
| | Qirg`iziston | 67,8 | 41,5 | 26,3 | 7,1 | 181,9 ↑ |
| | Turkiya | 36,2 | 23,6 | 12,6 | 3,8 | 84,8 ↓ |
| | Koreya Respublikasi | 17,9 | 4,5 | 13,4 | 1,9 | 73,6 ↓ |
| | Germaniya | 14,7 | 1,4 | 13,4 | 1,5 | 2,0 b ↑ |
| | Polsha | 13,7 | 12,7 | 1,0 | 1,4 | 102,1 ↑ |
| | Bangladesh | 13,6 | 13,6 | 0,0 | 1,4 | 143,4 ↑ |
| | Hindiston | 11,6 | 0,1 | 11,5 | 1,2 | 5,4 b ↑ |
| | Tojikiston | 9,7 | 4,5 | 5,1 | 1,0 | 97,9. ↓ |
| | Turkmaniston | 9,0 | 0,4 | 8,5 | 0,9 | 149,2 ↑ |
| | Latviya | 8,1 | 0,8 | 7,3 | 0,9 | 132,2 ↑ |
| | Ukraina | 5,8 | 3,1 | 2,8 | 0,6 | 67,2 ↓ |
| | Chehiya | 5,2 | 1,2 | 4,0 | 0,5 | 2,3 b ↑ |
| | Eron | 5,1 | 2,7 | 2,4 | 0,5 | 40,4 ↓ |
| | Litva | 5,1 | 1,4 | 3,7 | 0,5 | 2,9 b ↑ |
| | Italiya | 4,7 | 0,4 | 4,4 | 0,5 | 69,2 ↓ |
| | Shveysariya | 4,3 | 0,0 | 4,3 | 0,4 | 3,1 b ↑ |
| | Izroil | 4,2 | 0,2 | 4,0 | 0,4 | 6,0 b ↑ |

**Farg'ona viloyat
eksporti**

2018 yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 371,2 mln. AQSh dollarga (o`rish sur`ati 6,2%) teng bo`ldi. eksport tarkibida tovarlar 98,8 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (38,1 %), shuningdek, energiya manbaalari va neft mahsulotlari (4,5 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,54 %) guruhlariga hissasiga to`g`ri kelmoqda.

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSh doll. | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| eksport | 371,2 | 106,2 | 100,0 | 213,6 | 115,3 | 100,0 | 157,6 | 95,8 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 1,0 | 8,3 | 0,3 | 0,0 | - | 0,0 | 164,9 | 65,6 | 3,2 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 141,5 | 149,3 | 38,1 | 135,7 | 151,1 | 63,5 | 242,8 | 149,5 | 4,6 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 2,0 | 5,3 | 0,5 | 1,8 | 6,6 | 0,8 | 370,0 | 107,3 | 7,1 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 16,5 | 144,9 | 4,5 | 10,2 | 254,3 | 4,8 | 885,9 | 161,9 | 16,9 |
| Qora va rangli metallar | 0,0 | 42,0 | 0,0 | 0,0 | 42,0 | 0,0 | 474,2 | 98,5 | 9,0 |
| Mashina va asbob uskunalar | 0,5 | 147,6 | 0,1 | 0,5 | 143,0 | 0,2 | 34,8 | 43,8 | 0,7 |
| Xizmatlar | 4,6 | 102,2 | 1,2 | 3,4 | 117,0 | 1,6 | 993,1 | 117,9 | 18,9 |
| Boshqalar | 205,2 | 108,6 | 55,3 | 61,9 | 101,7 | 29,0 | 2078,2 | 71,5 | 39,6 |

**eksport
tarkibi, %**



Farg'ona viloyatidan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 43,4 % ini tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan
eksport tarkibi
(yanvar-avgust oylari)

(ming. AQSh doll.)


| | Rossiya Federatsiyasi | | Qozog'iston Respublikasi | |
|---|-----------------------|----------------|--------------------------|----------------|
| | 2017 y. | 2018 y. | 2017 y. | 2018 y. |
| Jami eksport | 74157,2 | 82695,5 | 64354,2 | 78366,5 |
| paxta tolasi | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 25041,2 | 28378,5 | 52487,8 | 72768,7 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 2732,7 | 32,2 | 1126,9 | 202,2 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 0,0 | 0,0 | 2627,0 | 3377,0 |
| qora va rangli metallar | 0,0 | 0,0 | 7,3 | 7,0 |
| mashina va asbob-uskunalar | 328,8 | 394,2 | 0,0 | 6,7 |
| xizmatlar | 2887,6 | 3349,7 | 18,8 | 10,9 |
| boshqalar | 43166,9 | 50540,9 | 5086,4 | 1994,0 |

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2018 yilning yanvar-avgust oylarida jami 124,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 139,7 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`shish sur`ati 50,4 %).

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 74,4 ming tonna meva va rezavorlar 112,6 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 ming tonnaga ko`pdir. Shuningdek, 38,2 ming tonnadan ko`proq sabzavotlar 16,2 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 ming tonnaga ko`p miqdorda eksport qilingan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


| Davlat nomi | 2017 yil yanvar-avgust | | | 2018 yil yanvar-avgust | | |
|--------------|------------------------|-----------------|-----------|------------------------|-----------------|-----------|
| | ming tonna | mln. AQSh doll. | ulushi, % | ming tonna | mln. AQSh doll. | ulushi, % |
| Qozog`iston | 283,1 | 200,5 | 54,8 | 400,9 | 293,8 | 50,1 |
| Rossiya | 87,0 | 65,2 | 17,8 | 140,0 | 100,3 | 17,1 |
| Qirg`iziston | 32,8 | 20,7 | 5,7 | 59,2 | 52,6 | 9,0 |
| Afg`oniston | 22,4 | 18,9 | 5,2 | 47,8 | 34,8 | 5,9 |
| Ukraina | 6,4 | 5,0 | 1,4 | 29,0 | 21,0 | 3,6 |
| Turkiya | 0,9 | 0,6 | 0,2 | 22,0 | 14,2 | 2,4 |

Farg'ona viloyatining importi

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 580,6 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 2,3 b) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari vaneft mahsulotlari (38,2%), kimyo mahsulotlari va mashina va uskunalari (23,6 %) hamda qora va rangli metallar (9,8 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi


| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSh doll. | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o`tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| Import | 580,6 | 229,2 | 100,0 | 343,7 | 283,0 | 100,0 | 236,9 | 179,7 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 33,9 | 189,0 | 5,8 | 23,6 | 184,4 | 6,9 | 10,3 | 200,7 | 4,3 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 46,2 | 130,4 | 8,0 | 12,6 | 214,8 | 3,7 | 33,5 | 113,5 | 14,2 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 221,9 | 3,5 b | 38,2 | 221,5 | 3,5 b | 64,5 | 0,3 | 215,3 | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 56,7 | 3,5 b | 9,8 | 18,0 | 2,5 b | 5,2 | 38,7 | 4,2 b | 16,3 |
| Mashina va asbob uskunalari | 136,9 | 187,9 | 23,6 | 6,2 | 107,7 | 1,8 | 130,6 | 194,8 | 55,1 |
| Xizmatlar | 4,6 | 132,6 | 0,8 | 0,2 | 48,8 b | 0,0 | 4,4 | 127,7 | 1,9 |
| Boshqalar | 80,6 | 185,8 | 13,9 | 61,5 | 2,4 b | 17,9 | 19,1 | 109,1 | 8,0 |

Import tarkibi, %



Xizmatlar importi hajmi 4,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,8 %ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 32,6 %ga o`tdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo`ldi.


**Farg'ona viloyat
importida asosiy
hamkor
davlatlarning hajmi,
mln. AQSh doll.**



2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatga 65 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 496,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 83,2 %ini tashkil qiladi.

**2018 yilda tovarlar
importi dinamikasi**
(oylar kesimida, mln.
AQSh dollari)

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida viloyat import qilinayotgan tovarlar hajmi iyun oyida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, avgust oyida iyul oyiga nisbatan qiymati 40,3 mln. AQSh dollariga kamroq tovarlar import qilindi va 52,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



So'nggi yillarda ichki ishlab chiqaruvchilarimizning tashqi bozorda mustahkam o`rin egallashlari va ularning eksportga qaratilgan faoliyatini mustahkamlash maqsadida, Hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojhona imtiyozlari va boshqa imkoniyatlarni yaratilishi natijasida korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni olib kirib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi va tashqi bozorlarda o`z o`rinlarini egallashlari uchun zamin yaratilmoqda.